

# TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ

—  
JOURNAL  
2022

№3

**Bosh muharrir:**

**Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

**Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.**

**Mas'ul kotiblar:**

**Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**  
**Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

**Tahririyat a'zolari:**

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

**Тарих ва Жамият илмий журнали**  
**ISTIQLOL YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MUZEYLAR VA**  
**MUZEY ISHINING ISLOH QILINISHI XUSUSIDA**

*Xaydarova Yodgora* - JDPI, magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida muzeylar va muzey ishining isloh qilinishi xususida so'z yuritiladi. Shuningdek unda hukumatimiz tomonidan istiqlol yillarida ko'p yillik merosni o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilganligi xususidagi tadqiqotchining fikr-mulohazalari o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Istiqlol, muzey, muzey ishi, tarixiy muzeylar, madaniyat, eksponat, "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Olimpiya shon-shuhrati muzeyi", turizm.

O'zbekiston istiqlolga erishgan dastlabki yillardanoq milliy o'zlikni anglash, boy ma'naviy merosimizni qadrlash, yosh avlod ongida milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizga nisbatan e'zoz tuyg'ularini shakllantirish asosiy maqsad va vazifa sifatida belgilandi.

Muzey - ajdodlarimizning avlodlarga qoldirgan munosib merosini targ'ib qiluvchi, bizni ming yillik ildizlarimiz bilan bog'lovchi, shuningdek bugungi rivojlanish va taraqqiyot davrlarimizni o'zida aks ettiruvchi, o'zligimizni namoyon etuvchi boy ma'naviy xazinadir.

Muzeylar - jonli tarix, o'tmishdan guvohlik beruvchi muassasalardir. Ularda xalqimizning tarixi, urf-odatlarini, an'analarini o'z aksini topgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar saqlanadi. Muzeylarning madaniyatimizda tutgan o'rni benihoya katta, bu avvalo, ularning tarixiy xotira va merosning bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishidagi roli bilan belgilanadi<sup>1</sup>. Boshqa tomondan esa muzeylardagi eksponatlar orqali tariximizni dunyo xalqlariga tanishtirish vazifasi ham turishini nazarda tutishimiz kerak bo'ladi. Zero, muzeylar va muzey ishi turizm sohasi bilan aloqador bo'lib, bu o'z navbatida respublikamiz iqtisodiyotining muayyan yo'nalishlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tarixiy merosimizni o'zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

Istiqlolimizning ilk kunlaridanoq, Islom Karimov yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, 1994-yilda "O'zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Natijada yurtimiz tarixini o'zida

---

<sup>1</sup> Bekmurodov M, Rashidova M. Muzeyshunoslik. T.: "Vorisi Ali", 2006. 6-b.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

to'liq aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq asori-atiqalar va noyob eksponatlarga ega muzey tashkil topdi.<sup>2</sup>

Yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarimiz nomini tiklash va ularning boy moddiy-madaniy merosni yosh avlodga yetkazib berish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1996-yil 18-oktabrda buyuk Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan yurtimizda yangi bir muzey - Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'z faoliyatini boshladi. Islom Karimov mazkur muzeyning ochilish marosimida ushbu muzeyga nisbatan shunday ta'rif bergan edilar: "Temuriylar tarixi davlat muzeyi Sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir. Aytish mumkinki, Amir Temur xiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir. Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening so'zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag'a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi".

1997-yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'zining salohiyati hamda badiiy ijod sohasida mutaxassis kadrlarni yetkazib beruvchi Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan oliy ta'lim muassasasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilib, institut qoshida esa ilk bor muzeyshunos mutaxassis kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'nalish ochildi. Bu albatta, O'zbekiston tarixida muzeyshunoslikning fan sifatida rivojlanishi uchun qo'yilgan tamal toshi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.<sup>3</sup>

Suni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatining huquqiy asoslari tamomila yangilandi. 2017-yilga qadar muzeylar faoliyatiga oid 46 ta me'yoriy huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni, 2 ta qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi muzeylarning faoliyatini takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qildi<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy hayotida alohida xotirani tiklash va mustahkamalashda muzeylarning ahamiyati nihoyatda katta. Shu boisdan ham istiqlol yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish hamda yangi muzeylar tashkil etish masalasiga katta e'tibor berilmoqda.

Fikrimizning isboti sifatida ta'kidlash lozimki, 1992-yili Jizzaxda jamoat va davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov muzeyi, 1992-yili Namanganda

<sup>2</sup> <http://www.islomkarimov.uz/uz/article/muzeyshunoslik-rivojining-yangi-bosqichi>

<sup>3</sup> <http://www.islomkarimov.uz/uz/article/muzeyshunoslik-rivojining-yangi-bosqichi>

<sup>4</sup> Mavrulov A.A., Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. T.: "TURON-IQBOL", 2018.224-b.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

ulug' shoir Bobarhim Mashrab muzeyi, Xorazmda Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining xalq baxshisi Islom shoir Nazar og'lining, 1993-yilda Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olimi Xadicha Sulaymonova muzeyi, taniqli o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboeva muzeyi, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat qahramoni Joboy Boshmonov muzeyi, 1994-yilda Toshkentda xalq rassomi Usta Muhiddin muzeyi, 1996-yilda O'zbekiston Hidrometeorologiya muzevi, 1997-yilda Buxoroda mashhur zarb qiluvchi Salim Hamidov muzeyi, 2001- yilda Jizzax O'rdasi tarixiy muzeyi, 2003- yilda Jizzaxda O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim muzeyi hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarimiz qoshida ko'plab muzeylar barpo etildi.<sup>5</sup>

Ma'lumki. 1996-yili 1-sentyabr kuni Toshkentda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey ekspozitsiyasida sportchilarimiz tomonidan Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon chempionatlari, nufuzli xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritilgan medallar, kuboklar, nishonlar, suvenirlar, pochta markalari, badiiy polotnolar, sport anjomlari o'rin olgan.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi yangi binoga ko'chirildi hamda ajdodlarimizning ko'p ming yillik hayoti va madaniyatini ilmiy xolisona aks ettiruvchi yangi eksponatlar bilan qayta jihozlandi. O'zbekiston davlat muzeyi Yaponiya hukumati tomonidan beg'araz ajratilgan 38,8 mln ien pul mablagi hisobiga ta'mirlandi, yangi muzey jihozlari, asbob-uskunalari bilan yanada boyidi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, hududiy, idoraviy bo'ysunishdan hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar muzey faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish maqsadida Respublika "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etildi.

2008-yil 12-sentabrda tasdiqlangan "Muzeylar to'g'risida"gi<sup>6</sup> qonun muzeylarni boshqarish, Milliy muzey fondi, muzey faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, davlat muzeylarining toifalarini belgilash, Milliy muzey fondining Davlat katalogi, Milliy muzey fondining ochiqligini ta'minlash, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi ko'plab masalalarni hal etishda manba bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>5</sup> N. Habibullayev., O'. Olimov. O'zbekiston madaniyati va san'ati dunyo e'tiborida. // "Moziydan sado" T. 1-2, 2000.34-b.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.- 2008.-№37-38.-364-modda.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

to'g'risida"gi farmoniga asosan "O'zbekmuzey" jamg'armasi tugatilib, uning funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga o'tkazildi.

Hozirgi globallashuv davrida turizmning ustuvorlik kasb etayotgani ham muzeylar faoliyati va muzey ishi tizimli tashkil qilinishini taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida 2017-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" qaror qabul qilindi<sup>7</sup>.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda.<sup>8</sup>

Shu ma'noda bugun muzeylar faoliyati, ularning tarixi, taraqqiyot bosqichlarini chuqur o'rganish, xulosalar asosida ertangi muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish, shu orqali O'zbekiston tarixining zalvorli jihatlarini yoshlarga yetkazish bugungi kun tarixlchilari, jumladan muzeyshunoslari uchun muhim amaliyot hisoblanadi.

Yosh avlod qalbida ma'naviy merosimizga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otishda muzeylarning o'rni beqiyos, binobarin bugungi kunda muzeylar nafaqat xalqimiz tarixidan hikoya qiluvchi osori-atiqalarni saqlaydigan, namoyish qiladigan muqaddas maskan, balki ta'lim tizimi rivojida, navqiron avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat dargohi hamdir. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturiga binoan 2017-2027 yillarda muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kompleks chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish ko'zda tutilgani biz uchun quvonarli holdir. Chunki mazkur dasturning ijrosi barcha muzeylarimiz moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash uchun hamda zamonaviy shart-sharoitlar yaratilishiga katta imkoniyatlar yaratadi.

Muzeylarning ahamiyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 49-moddasida ham alohida ta'kidlab o'tilgan: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining

---

<sup>7</sup> 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. //http://www.lex.uz

<sup>8</sup> <https://xs.uz/uz/post/muzejlar-tarikhning-sirli-khilqatlarini-ozida-muzhassam-etgan-kozgu>

## **Тарих ва Жамият илмий журнали**

tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida mamlakatda mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa salohiyatli turlarini jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, jumladan, “Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar belgilab olindi. Jumladan: mahalliy aholining mamlakat bo'ylab sayohatlarini rag'batlantirish, sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratish, hududlarning sayyohlik salohiyatini keng targ'ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish; xorijiy sayyohlarning tashrifi uchun keng shart-sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish; mamlakatimizdagi moddiy madaniy meros obyektlarida va ular atrofidagi obyektlarda tegishli infratuzilmani shakllantirish, amalga oshiriladigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali ziyorat turizmini sohaning istiqbolli yo'nalishi sifatida rivojlantirish kabilar.<sup>9</sup>

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatini takomillashtirish va turizm sohasini rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Albatta, bu sa'y-harakatlar zamirida Prezidentimizning olib borayotgan fidokorona xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Chunki ular Vatanimizning ravnaqi va tinchligi yo'lida turli mamlakatlar bilan o'zaro hamdo'stlik hamda manfaatli shartnomalarni imzolab, xalqimiz uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqdalar. Biz, yoshlar esa hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan bu kabi imkoniyatlardan oqilona foydalanib, Yangilanayotgan Vatan ravnaqiga munosib hissamizni qo'shishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. //http:// www/lex/uz
2. O'zbekiston Respublikasining “Muzeylar to'g'risida”gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.- 2008.-№37-38.-364-modda.
3. Bekmurodov M, Rashidova M. Muzeyshunoslik. T.:“Voris Ali”, 2006.

<sup>9</sup> Shamsuddinov R. , Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. T., 2003. 234-b.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

4. Mavrulov A.A., Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. T.: "TURON-IQBOL", 2018.
5. N. Habibullayev, O'. Olimov. O'zbekiston madaniyati va san'ati dunyo e'tiborida // "Moziydan sado" T. 1-2, 2000.
6. Shamsuddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. "Vatan tarixi". T. 2003.
7. <http://www.islomkarimov.uz/uz/article/muzeyshunoslik-rivojining-yangi-bosqichi>
8. <https://xs.uz/uz/post/muzejlar-tarikhning-sirli-khilqatlarini-ozida-uzhassam-etgan-kozgu>